



YUQORI SINF O‘QUVCHILARIDA INGLIZ TILI FANI
VOSITASIDA IJTIMOIYLASHISH

NAPASOVA SITORA FARXODOVNA

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika

instituti “Pedagogika nazariyasi va tarixi”

mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi globallashuv jarayonida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning ijtimoiylashuv jarayonida ingliz tili fanining ahamiyati hamda jarayon doirasida yuzaga keladigan muammolar, ularning yechimi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiylashish, o‘quvchi, individuallashuv, shaxs, jamiyat, moslashuv, STEAM, ijtimoiy mavqe.

Аннотация: В данном исследовании о значении английского языка в процессе социализации школьников-подростков в условиях современной глобализации, а также о проблемах, возникающих в рамках этого процесса, и их решениях.

Ключевые слова: социализация, обучающийся, индивидуализация, человек, общество, адаптация, STEAM, социальный статус.



Abstract: This study explores the importance of English language learning in the socialization process of adolescent students in today's globalization process, as well as the problems that arise within the process and their solutions.

Keywords: socialization, student, individualization, personality, society, adaptation, STEAM, social status

Kirish. Individdun dunyoga kelgan onidan boshlab jamiyat qurshovida bo'ladi hamda uning oldida bevosita ijtimoiylashish masalasi turadi. Bolaning shaxs sifatida ulg'ayib, ijtimoiy rivojlanishi o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan ikkita yo'nalishda olib boriladi:

- moslashuv (ijtimoiy-madaniy va tarixiy tajribalarni o'zlashtirish);
- individuallashuv (mustaqillik, nisbatan o'ziga xoslikka ega bo'lish) [1. 237]

Shaxs jamiyatning talab va majburiyatlariga javob berish bilan bir qatorda o'z "men"i, qiziqish, intilishlarini ham unutib qo'ymasligi muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan mana shu o'ziga xoslik orqali u jamiyatning bir bo'g'inini tashkil etadi. Yer sharining jadal suratlarda rivojlanib borayotgan bir vaqtida ijtimoiylashish tushunchasini ingliz tili bilan bog'lash ayni muddao sanaladi. Zamonaviy ta'lim tizimida dunyo tili sanaladigan ingliz tili nafaqat ma'lumot olish vositasi, balki dunyoning istalgan nuqtasi bilan aloqa qilish qurolidir. Dunyo ta'lim tizimida yetakchilik qilayotgan AQSH, Buyuk Britaniya va Janubiy Koreyada STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvi keng qo'llanilmoqda. Bu uslub orqali ingliz tili fanlararo integratsiya qilinadi hamda o'quvchilar ilmiy va texnik mavzularni ingliz tilida muhokama qilishga o'rgatiladi.

ADABOYOTLAR TAHLILI



Til o'rganish faqat grammatik qoidalar va so'zlarni yodlash bilan cheklanmay insonlar o'rtasidagi asosiy muloqot vositasidir. U orqali ma'naviy-madaniy tushunchalarni an'ana va qadriyatlarni o'rganish mumkin. Til o'rganish shunchaki grammatika va lug'at yodlash emas, balki ijtimoiy jarayon bo'lib odamning shaxsiy identifikatsiyasi va jamiyatdagi o'rniga bevosita ta'sir qiladi. [2. 133]

O'quvchilar tillarni faqat baho olish uchun emas, balki ijtimoiy mavqeni oshirish, global jamiyatning bir qismiga aylanish, yangi imkoniyatlardan foydalanish uchun o'rganishlari maqsadga muvofiq. O'quvchi o'zini til o'rganuvchidan ko'ra til ishlatuvchi shaxs sifatida his qilishi kerak. Bu esa maktabdagi darslarni real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtirish zarurligini anglatadi. O'quvchilar til o'rganish, muloqot qilish jarayonida o'z shaxsiy identifikatsiyasini shakllantiradilar. Ya'ni ma'lum bir tilni o'rganish faqat lug'at va grammatikani bilish bilan cheklanmay balki yangi ijtimoiy rol va shaxsiy pozitsiyasini ham shakllantiradi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Ilmiy tadqiqot ishiga doir 50 ta so'rovnoma Samarqand viloyati Oqdaryo tumanida joylashgan 38 va 39-maktablarning yuqori sinf o'quvchilaridan anonim tarzda olindi.

Olingan so'rovnoma natijalari taqqoslama hamda matematik usullarda tahlil qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA:

Yig'ilgan materillar tahlili ko'ra so'rovnoma qatnashchilarining 42% i 16-17 yoshda, 58% i esa 14-15 yoshda ekanligi aniqlandi. 16-17 yoshdagi maktab o'quvchilarining 14% i o'g'il bolalar bo'lsa, qolgan 28% i qiz bolalarni tashkil qilishi aniqlandi. 14-15 yosh ko'rsatkichlarida o'g'il bolalar 34%, qiz bolalar esa 24% ga to'g'ri kelmoqda. Darslar davomida muloqot qilishga qaratilgan o'yin va metodlar so'ralganda ishtirokchilarning 34% jamoaviy loyihalarda ishtirok etish, 28% do'stlar bilan suhbat, 16% rolli o'yinlar, 14%



bahs-munozaralar, qolgan 10% qismiga esa prezentatsiyalarning ahamiyati katta ekanligini kuzatildi.

O'quvchilarning 28% ko'proq suhbat o'tkazish ingliz tilida erkin muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun samarali deb bilsa, 32% real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish hamda eng yuqori 40% i o'yinlar orqali til o'rganishning ahamiyati katta ekanligi ko'rsatishgan. So'rovnoma qatnashchilarining salmoqli qismi ingliz tilida do'st orttirish imkoni berilsa, sayohatchi va blogerlar bilan tanishishni xohlashlarini aytgan.

XULOSA

Olingan so'rovnoma natijasiga ko'ra, o'quvchilarning asosiy qismi ingliz tilini o'yinlar, asosan, rolli o'yinlar o'ynash (Role play) orqali o'zlashtirishni ma'qul topishdi. Bundan tashqari darslar davomida asosan guruh bo'lib ishlash sinfda do'stona muhit yaratibgina qolmasdan, balki o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqlarini oshiradi. O'quvchilarning darslar davomida so'z boyligining yetarlicha emasligi muloqot qilishga to'sqinlik qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ekins, P. (1999). Economic growth and environmental sustainability: The Prospects for green growth.
2. Bonny, N. (2000). Identity and language learning.
3. Leontiev, A. N. (1996). Psixologiya va pedagogika. Pedagogika.
4. Brookfield, S. D. (1995). Becoming a Critically Reflective Teacher. Jossey-Bass.
5. Block, D. (2007). Second Language Identities. Continuum.